



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**



**AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**„TURKIY XALQLAR FILOLOGIYASIDA FUNDAMENTAL
TADQIQOTLAR VA INNOVATSION TA‘LIM
TEXNOLOGIYALARI“**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI



Nukus – 2022

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, „Fidokorona xizmatlari uchun“ ordeni, „Maxtumduli Firogiy“ xalqaro mukofoti sohibi, filologiya fanlari doktori, professor **Karimboy Quramboyev** tavalludining 80 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan „**Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari**“ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. (2022-yil 10-noyabr) / O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti. – Nukus: Nukus DPI bosmaxonasi, 2022.

To‘plamdan turkiy xalqlar adabiyotshunosligi: tarixi, nazariya, folklorshunoslik, adabiy jarayon va tanqid, tarjimashunoslik; turkiy xalqlar tilshunosligi: tarixi, nazariyasi, shevashunoslik, qiyosiy tilshunoslik; til va adabiyot ta’limida innovatsion yondashuvlar bilan bog‘liq maqola va tezislar o‘rin olgan.

Mas’ul muharrirlar:

K.Allambergenov – filologiya fanlari doktori, professor;
G.Qurbaniyazov – filologiya fanlari doktori, dotsent;
S.Matyakupov – filologiya fanlari doktori, dotsent.

Taqrizchilar:

Z.Bekberganova – filologiya fanlari doktori, professor.
A.Pirniyazova – filologiya fanlari doktori, dotsent.
Q.Qodirov – pedagogika fanlari doktori, dotsent.
F.Sapayeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor v.b.

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O‘quv-uslubiy Kengashi tomonidan 2022-yil 24-oktabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

© Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 2022

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Tashanov Kamil Yuldashevich	O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Allanazarov Esbergen Esbosinovich	Qoraqalpoq tili kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Bekbergenova Mariya Dosbergenovna	Qoraqalpoq adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Keruenow Turganbay Awezmetovich	Qozoq tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori
Aldasheva Shirin Jalgasovna	O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Buranova Shoxista Menglibaevna	O'zbek tili kafedrası mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Kuttimuratova Iristi Abduraxmanovna	Qozoq tili va adabiyoti mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti
Bekchanova Sayyora Bazarbayevna	O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna	O'zbek tili kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Allambergenova Nodira Gulmurzayevna	O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Allambergenov Hamza Kamalovich	O'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

1. Кулинченко Ю.С. "Концепт "семья" в русской классике 19 века: А.С. Пушкин, Л.Н. Толстой, М.Е. Салтыков-Щедрин" Выпускная квалификационная работа, стр-6, НИУ. БелГУ., 2018 год.
2. Занеги́на Наталья Николаевна, // к.ф.н. диссертационная работа "Концепт "Семья" в русском литературном языке и принципы его описания". - Москва, 2011 год. гл.1, п.3 стр-20-24
3. Муратгалина И.А. учитель русского языка и литературы МБОУ СОШ г. Урала. План урока и презентация по теме семьи для 7 класса.стр-6-14

ORALIQ SHEVALAR TALQINIGA DOIR

**Turdialiev Anvarbek,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti**

Abstrakt. O‘zbek shevashunosligining rivojlanishi, uning keng miqyosda o‘rganish XX asrning 20-30-yillarida amalga oshirilgan. Bu yillarda Y.D.Polivanov, G‘.Olim Yunus, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov kabi olimlar nomlari bilan bog‘liq[Ashirboyev. 2021. 1:11]. O‘zbek shevalari orasida o‘zaro ta’sir qadimdan mavjud bo‘lib bu aholining qo‘shnichilikda yashashi bilan, turli xildagi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalari bilan bog‘lanadi. Shevalarning o‘zaro aloqaga kirishishi natijasida yangi bir sheva oraliq sheva vujudga keladi. Bunday ko‘rinishda hosil bo‘lgan shevalarni olimlar turli xil nomlar bilan nomlashgan *aralash shevalar, oraliqdagi shevalar termini shu tahlit yuzaga kelgan*. Oraliq shevalar haqida V.Reshetov, F. Abdullayev, M. Mirzayev, N.D.Yunusov, G‘.O.Yunus, I. Shamsiddinov, T.Qudratovlarning ishlarida ma’lumot berilgan. Ushbu maqolada ana shu masala muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: dialektologiya, oraliq, aralash, lingvistika, dialekt, lingvistik geografiya, переходной, промежуточный, diftong, hudud, tayanch dialekt.

O‘zbek shevalarining fonetik,leksikmorfologik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga ularning joylashgan hudud va unga ta’sir qiluvchi sheva yoki tillar ta’siri doirasida ham tadqiq qilish dialektologlarimiz tomonidan o‘rganilgan, bir qancha o‘zbek shevalarini qiyoslab shevalarning leksik, fonetik va morfologik ko‘chuvchanligi, o‘zgaruvchanligi sheva xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatgich-lar ilmiy ishlardao‘z aksini topgan.

Surxondaryo o‘zbek shevalarida so‘zlashuvchi aholi nutqida ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti, moddiy va madaniy turmushni aks ettiruvchi xilma-xil so‘z boyligi o‘z ifodasini topgan. Hudud shevasini o‘rganish jarayonida bir-biridan keskin farq qilmasa ham ma’lum bir sheva guruhiga kiritishda ikkilanishlar kuzatildi(bo‘ldi). Bu sheva xususiyatlarini davr o‘tishi bilan xalqning ma’lum sabablarga ko‘ra bir hududdan ikkinchi hududga ko‘chib o‘tishi, vaqtincha yoki doimiy yashab qolishi, ijtimoiy yaqinlashuv hamda bozor munosabatlari natijasida o‘zgarishiga olib keladi.

Bu o'zgarishlar oqibatida yangi bir sheva hosil bo'lmasa-da, ikki va undan ortiq sheva xususiyatlarini o'ziga jamlagan aralash sheva, ya'ni *oraliq sheva* yuzaga keladi. Shevalarning bir-biriga ta'siri va aralashishi hodisasi haqida dialektolog olimlar o'z asarlarida qisqacha bayon qilib ketganlar, qaysi sababga ko'ra bu sheva hosil bo'lganligini misollar bilan keltirganlar, ammo bu hodisaning nomlanishi nazardan chetda qolgan. *Aralash sheva* yoki *oraliq shevalar* deb keltirib ketganlar, ba'zi o'rinlarda ikkalasi ham baravar qo'llangan. Oraliq shevalar termin sifatida T.Qudratovning "O'zbek tilining oraliq shevalari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida keltiriladi.

Buni quyidagicha izohlaydi:

Oraliq shevalar turli xil yo'llar bilan paydo bo'lgan deb qarash mumkin:

1) qardosh ikki tilga mansub shevalarning o'zaro ta'sirlanishi natijasida shu ikki til orasida turuvchi sheva;

2) bir tildagi ikki lahjaga mansub shevalarning o'zaro ta'sirlanishi natijasida shu ikki lahja o'rtasida turuvchi shevalar.

Bunday shevalarda o'zaro munosabatga kirishgan yaxlit ikki til yoki ikki sheva birligiga xos faktlar ozmi ko'pmi saqlangan bo'ladi. Aralashish davrigacha u yoki bu til birligida amal qilgan ba'zi bir lingvistik belgilar iste'moldan chiqib, ularning o'rnini shu sheva (lahja)lardan birida mavjud bo'lgan boshqa belgilar egallaydi. Ko'pgina grammatik, leksik xususiyatlar ma'lum bir davrgacha parallel yashashni davom ettiradi. Lekin birining funksiyasi torayib, aksincha, boshqasi kengroq ishlatiladigan hodisalar ham bo'ladi. Kam qo'llanuvchi hodisa bora-bora ise'moldan chiqib ketadi. Aralash ikki til massivi (lahja) tutashgan yerda maydonga kelishi mumkin. Bunday hollarda munosabatga kirishgan lahjalarga xos belgilar tasvirlangan shevalarning hamma qismida ham birday amal qilmaydi. Bir til massividan (masalan: bizning obyektimizda, qarluq shevalaridan) uzoqlashgan sari unga xos belgilar kamaya borib boshqasiga masalan: (qipchoq shevalariga) xos xususiyatlar orta boradi va aksincha. Shunday qilib, oraliq shevaning qutblari o'zi tutashgan lahjaga yaqin turadi.

Xulosa, birinchidan, oraliq shevalari ikki lahjaning o'zaro bir-biriga ta'siri oqibatida kelib chiqqan bo'lib, o'z xususiyatlari bilan shu lahjalar orasida turadi; ikkinchidan ularni shu tufayli va lingvistik xususiyatlarning xarakteri nuqtai nazaridan ikki yaxlit lahjaning birortasi tarkibiga kiritib bo'lmaydi, chunki mazkur shevalarda o'sha lahjaning birortasining ham xususiyatlari to'la saqlanmagan bo'ladi. Bunday shevalarni *oraliq (переходной yoki промежуточный)shevalar* deb nomlash maqul bo'ladi. Biz tekshirgan shevalarning birinchi turi (Chelak-o'z-Do'ngkamar tip shevalar) aslida qipchoq lahjasiga mansub bo'lganligi shevaning hozirgi holati (masalan, urug'ini bilishi, ayrim urf-odatlari) belgilardan yaqqol ko'rinib turadi. Bu guruppaning hozirgi til va etnik holatiga qarab baho berilganda, u qipchoq lahjasidan shahar tip shevalarga qarab siljish protsesini o'z boshidan kechirgan va kechirmoqda deyish mumkin. Ana shu siljishga sababchi yagona bo'lgan faktor bu shevalarning ikkinchi tur (Nushkent-tatar-kattatol tip) va shahar tip shevalar bilan kundalik munosabatida namyon bo'luvchi, hayot, taraqqiyot taqozasida yuz bergan tabiiy shahar shevalariga intilishdir. Ikkinchi tur shevalarda qipchoq shevalariga qarab siljish bo'lganligi seziladi. Chunki bu turga tegishli

ko'pchilik aholi asli qarluq lahjasida so'zlovchi bo'lib, keyingi tarixiy iqtisodiy voqealar natijasida qipchoq lahjasiga mansub aholi bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Lekin o'z lahjasiga xos ko'p xususiyatlarni, asosan, saqlab qolgan. Bu turda ko'proq leksika, kamroq fonetika, grammatika (morfologiya) o'zgarishga uchragan. Ammo shuni alohida qayd etish zarurki, ikkinchi tur shevalarning hozirgi holati ularni qarluq lahjasi tarkibiga kiritish imkoniyatini bermaydi. Biz mana shulardan kelib chiqib, mazkur ikki tur shevalarni birgalikda "oraliq" shevalar deb nomladik [Кудратов 1968.12:16]. O'zbek tili lahjalari chegarasida paydo bo'lgan oraliq shevalarni qaysi lahjalar o'zaro bir-biriga ta'sir etganligiga qarab, ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisi qarluq va o'g'uz lahjalarining qipchoq lahjasiga ta'siri natijasida paydo bo'lgan oraliq shevalar; qarluq lahjasining o'g'uz lahjasiga ta'siri natijasida paydo bo'lgan shevalar. Qipchoq lahjasiga mansub shevalarning qarluq-chigil-uyg'ur va o'g'uz lahjasiga ta'sirida ayrim spetsifik xususiyatlarini yo'qotib, ular o'rnida shahar tip yoki o'g'uz shevalariga xos belgilar bilan boyishi respublikamiz hududida keng tarqalgandir [Кудратов 1968.12:17].

Bizning nazarimizda, ular o'zbek shevalari klassifikatsiyada ham o'zaksini topmog'i zarurdek seziladi. Lekin hozircha bu masala (oraliq shevalar masalasi) atroflicha o'rganilib, umumo'zbek tili chegarasida o'z tasnifini topgan emas. Ikki lahja vakillarining aralash yashashi natijasida o'z spetsifik xususiyatlarini yo'qotayotgan shevalar O'zbekiston hududida ko'pgina borligi, yuqorida aytganimizdek ba'zi bir olimlar tomonidan qayt qilingan. Polivanov 30-yillarda Samarqand atrofida "qozoq-nayman" shevasida shahar tip shevalari ta'sirida boshqa shevalar qirq, qipchoq shevalarida uchramaydigan beshta hodisa ([ā va x] fonemalari; "it" va "bit" so'zlarida normal "i" eshitilishi; e, ö, o **tovushlarning diftonglashmasligi**, qaratqich kelishigining tushum kelishigi formasida ekanligi,) paydo bo'lganligini aytgan; shuningdek uchta keng (ä, a, ā) unliga ega bo'lganligi uchun (Andijon-Qo'qon) shevalarini oraliq shevalar deb nomlagan edi⁷⁹ [ПоливановЕ. 1931. 13:101-106]. Dialektologlar V. Reshetov, F. Abdullayev, M. Mirzayevlarning yozishicha qipchoq shevalari ular bilan yondosh joylashgan "j"lovchi shevalar ta'sirida "ž"lovchi shevalarning ba'zi guruhlarida fonemalar soni qisqarib, ayrim fonetik, morfologik qonuniyatlar amal qilmay qo'ygan yoki faoliyati susaygan. V. Reshetov "Qurama" shevalaridagi "ž"lovchi guruhda yana bir kichik guruhni ajratib olib, uni "oraliq" (переходная) guruh deb nomlaydi. Bu guruhning asosiy xususiyatlari qilib: - ž tovushini -jga o'tganligi, diftonglar kamayganligi, x, q undoshlari mustaqil fonema ekanligi, "ijt"- "bijt" so'zlaridagi "i" statik-normal "i" eshitilishi haqida yozadi. Bu xususiyatlar "j"lovchi shevalar hamda adabiy tilning kuchli ta'siri sabab vujudga kelgan deb, -yozadi. [Reshetov qurama shevalari]. Xorazm shevalarini o'rgangan F. Abdullayev yozishicha O'guz va qipchoq lahjalaridan iborat katta til massivlaridan tashqari aralash tipdagi kichik shevalar ham mavjud. Aralash yoki oraliq shevalarning vakillari uch-to'rt asr mobaynida aralash hududlarda yoki ma'lum bir aholi punktida qo'shni yashab kelmoqdalar. Mazkur sharoit taqozasi bilan, o'g'uz lahjasi xususiyatlari ortiq bo'lgan "o'g'uz-qipchoq"

⁷⁹Е. Д. Поливанов, образцы не-иранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка, Изв., АН. СССР, 1931, 1, 100-106-с.

yoki qipchoq lahjasi xususiyatlari ortiq bo'lgan "qipchoq-o'g'uz" shevalari paydo bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan bir-biridan farq qiluvchi xususiyatga ega shevalar aralashib, ko'proq faol bo'lgan bir sheva ikkinchisining ustidan dominantlik qilgan,- deydi [Абдуллаев.1961.9:81].

M. Mirzayev Buxorodagi qipchoq shevalarida o'zbek tilining qipchoq lahjasiga xos **ie**, **uo**, **ö** kabi diftonglar yo'q ekanligi;

so'z boshida "h" tovushi ortmasligi;

jo'nalish kelishigida kelgan kishilik olmoshlari "mayan", "sayan" emas menga, senga shaklida ekanligi;

hozirgi zamon fe'li –**"žatir"** emas –**"yap"** bilan yasalishini qayd qilgan. Xorazm va Buxoro viloyatining ba'zi qipchoq lahjasi qo'shni o'g'uz va qarluq tip shevalar ta'sirida o'zgarib qipchoq lahjasiga xos xususiyatlarni yo'qolib boryotganligini I. Shamsiddinov quyidagicha izohlaydi, "Buxoro viloyati o'g'uz lahjasiga mansub ba'zi shevalar o'xususiyatlarini yo'qotib, qarluq tip shevalarga yaqinlashib boryapti. Hudud o'g'uz shevasining taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki o'g'uz tillariga xos xususiyatlarni asta-sekin chekinib qarluq tip shevalari tomon o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda Qorako'l shevasi umumo'zbek tilining oraliq "kechmish" shevalaridan sanaladi [Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар. 1963. 11:213]."

Qashqadaryo viloyati ba'zi qishloqlari qipchoq sheva xususiyatlarini yo'qotib, ular o'rniga Shahrisabz-Qarshi shevalariga xos lingvistik xususiyatlar egalagan bo'lsa ham qipchoqlik belgilari tamoman yo'qolmagan, shahar shevasining ham butun xususiyatlari to'liq o'zlashmagan. Bu guruh shevalarda ikki lahja belgilari aralash qo'llanaveradi. Bunday shevalarda alohida lahjalarga xos fonetik, morfologik, leksik ayirmaliklarning paydo bo'lishi tasodif emas, shuningdek xatolik, chalkash, tartibsiz hodisa ham emas, balki keyingi davrlar mahsuli hisoblangan shevalar xususiyati bo'lib, bunday sifat o'zgarishining tilda paydo bo'lishi to'la qonuniydir. O'zbek shevalarini sinchiklab o'rgangan To'ra Qudratov o'rganilayotgan hudud jihatidan Qashqadaryo shevalarini ikkiga ajratib ko'rsatadi;

O'z lingistik xususiyatlari bilan ko'proq qipchoq lahjasiga yaqin bo'lgan oraliq shevalar;

O'z lingistik xususiyatlari bilan ko'proq shahar shevasiga yaqin bo'lgan oraliq shevalar [Кудратов 1968.12:21].

G'.O.Yunus "Xiva – Urganch lahjasini" tasniflaganda "Bu kunda Buxara shaharida va unga yaqin qishlaqlarda yashavchi o'turaq qarliqlar bilan Tajikistanda Kafirnihan nahri blan Vaxsh nahri o'rtasidagi vadida, yarim ko'chmanchi halda yashavchi qarluq qabilasining tili blan Xeva tili orasida ancha yaqinligi bar. Har ikkisida o'g'uz tili unsurlari bashqa lahjalarimizdagidan ko'prakdir, Samarqand, Katta qo'rg'an, Qarshi, (Behbudi), Shahrisabz, Ktob, G'uzar, Baysun kabi shahar va qasabalarda yashavchi turli xalqlar va turcha so'zlashuchi tajik, arab, avg'an, qarluq qabilasining bugungi janli shevasida so'zlashadilar. Qarluq qabilasining tili turk – barlas qabilasining tiliga o'xshash tavushlar uyg'unligini hazir jo'g'atg'an. Braq bu ikki qabilaning tili arasida ancha fanetik, morfologik, va lug'aviy farqlar bo'lib, har biri ayrim lahjalatga mansubdir. Ya'ni bugungi qalug'cha Xeva lahjasining bir shevasi bo'lib, bugungi tur-barlaschha – chg'atay lahjasining bir shevasidir", - deydi. G'.

Yunusov bir nechta shevalar aralashishi, bir-biriga tasir etishi natijasida bu sheva yuzaga keldi deb tasvirlaydi va misol sifatida [q-gʻ, k-g: *aq-agʻi*, *ayaq-ayagʻi* (Qashqarchada: *aq-egʻi*, *qulugʻi*), *yuk-yugi*, *blak-bagi*] misollarini keltiradi [Gʻ.O. Yunus. 1935.3:22]. Gʻ.O. Yunusov oraliq shevalarni tasvirlaganda aynan bu termin bilan atamasada, lekin oʻzbek shevalarida oʻzaro ikki va undan ortiq oʻzbek shevalari, oʻzbek va tojik tili, oʻzbek-turkman, oʻzbek-afgʻon tili aholining ijtimoiy munosabatlari hamda uzoq tarixiy-lingvistik jarayon sabab shevalar oʻz xususiyatlaridan uzoqlashib qoʻshni sheva xususiyatlarini oʻzlashtirishini asoslab keltiradi.

Oraliq shevalar boshqa qardosh milliy tillar tarkibida ham mavjud masalan: rus va belorus tillari tutashgan chegaralarda belorus tili negizida oraliq shevalar paydo boʻlgan [P.И. Иванесов “Очерки русской диалектологии” часть-1.] Bundan tashqari N.D. Yunusov oʻzining “Казахский переходный говор на территории Каракалпакской” nomzodlik ishida Qoraqalpogʻistondagi qozoq shevalarini oraliq shevalar deb keltiradi [Н. Джунусов. 1965.10:17].

Oʻzbek shevalarining oʻrganilishi shuni koʻrsatadiki, oʻzbek shevalaridagi yirik sheva hududlari taʼsiriga uchragan kichik hududda joylashgan shevalar qayta oʻrganilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 176.
2. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962.
3. Yunusov Gʻ.O. Oʻzbek lahjalarini tasnifda bir tajriba. – Toshkent: 1935.
4. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: ФАН, 1991.
5. Джураев Х. Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название “турк-калтат” (по материалам Самаркандской, Джизакской и Сырдаринской областей УзССР). АКД, Ташкент, 1975.
6. Носиров М. Сурхондарё шевалари буйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979. № 5. Б. 67 - 69 .
7. Шоабдурахмонов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. – Тошкент: Фан, 1983.
8. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967.
9. Абдуллаев Ф. Фонетика хорезмских говоров узбекского языка, ДД, Т., 1961.
10. Джунусов Н. “Казахский переходный говор на территории Каракалпакской” номз. дисс. Almata, 1965.
11. Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар. Тўплам. 1963.
12. Кудратов Т. Ўзбек тилининг горалик (Шахрисабз, Яккабоғ, Чирокчи, Қамашираёнларидаги горалик шева материаллари асосида). – Тошкент, 1968.
13. Поливанов Е. Образцы не - иранизованных /сингармонистических говоров узбекского языка, Изв., АН СССР, 1931, I 100-106-бетлар

Internet manzili:

14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Udmurt_tili

15. https://pedlib.ru/Books/1/0110/1_0110-11.shtml

G.DÁWLETOVANIŇ SHIĞARMALARINDA NAQIL-MAQALLARDIŇ LINGVOPOETIKALIQ ANALIZI

**Sh.Jolimbetova,
NMPI Qaraqalpaq tili kafedrasınıń
tayanış doktorantı**

G.Dáwletova shıǵarmaları kórkemligi,sózlerdiń sheber qollanıwı menen basqa shıǵarmalar ishinde óz ornına iye. Ásirese,onıń shıǵarmaları tilinde naqıl-maqallar shayırdıń oǵan ózinshelik qatnas jasawı,ayırım orınlarda qayta islewi menen de parıqlanıp turadı.

Belgili leksikolog E.Berdimuratov:"Stil bul, haqıyqatında da, tildiń táriyxıy rawajlanıwınıń barısında turmıs tarawlarına, til arqalı qatnastıń túrli formalarına, konkret jaǵdayǵa baylanıslı leksika-semantikalıq, grammatikalıq hám t.b boyınsha sol tarawǵa funkcionallıq beyimliligi menen qalıplesken til qurallarınıń sisteması sıpatında kórinedi" – dep jazadı.

Al, ilimpaz J.Doniyorov hám B.Yuldashevlar kórkem shıǵarmanı ashıp beriwshi jazıwshı stilin bılay anıqlaydı: "Uluwma alǵanda, uslub jazıwshınıń obyektiv dúnyanı individual obrazlı ózlestiriwi, onı estetikalıq-obrazlı súwretlew, individual kórkem tallaw jasaw usılı bolıp, onı úyreniwi bir qansha filologiyalıq, psixologiyalıq hám filosofiyalıq salalardıń óz ara baylanısın talap etiletuǵın áhmiyetli problema bolıp esaplanadı. Kórkem shıǵarma tilin úyreniw bolsa jazıwshı uslubı, individuallıǵı hám sheberligin anıqlawdıń bir tárepi ǵana, - dep aytıp ótedi.

Kórkem stilistikaniń tiykarın quraytuǵın naqıl-maqallar bolsa qaraqalpaq ádebiy tiliniń biybaha baylıqlarınan biri bolıp esaplanadı. Naqıl-maqallar arqalı pikir kórkem stillik boyawlar menen bir neshe onlaǵan sózler bildiretuǵın oy tildegi tayar hám qısqa, ıqsham túrdegi til birlikleri arqalı bildiriledi. Kúndelikli turmısta tildiń kommunikativlik xızmeti barısında jámiyette adamlar naqıl-maqallardan óz bildirejaq oy-pikirlerine logikalıq jaqtan sáykes túrde ónimli paydalanadı. Al olardı óz orınlı ornında emocionallıq-ekspressivlik kelbetin barınsha kórkemlik penen paydalana bilw, hárbir adamnıń sóz tańlaw talantına, pikir dúnyasına baylanıslı.

Naqıl-maqallar poeziyalıq shıǵarmalarda qosıq qatarına ózgeshe kórkemlik beredi. Naqıl-maqallar poeziyalıq shıǵarmalarda eki túrde ushırasadı:

1. Awızeki xalıq danalığında qanday formada qollanılsa, poeziyalıq shıǵarmalarda da ózgerissiz qollanıladı.

2. Ayırım jaǵdaylarda hár qıylı ózgerisler menen qollanıladı.

Qaraqalpaqstanǵa belgili talantlı shayırlardan biri - Gúlistan Dáwletova óziniń qosıqlar toplamında milliy ádebiyatımızdıń tiykarın quraytuǵın naqıl-maqallardı, naqıl sıpatında bizge belgili ushırma sózlerdi stillik jaqtan sheber qollanǵan. Ásirese onıń "Gúlistan" toplamında xalıqtıń aqıl oyı kórinetuǵın naqıl-maqallar qosıqtıń

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ:

1-sho'ba: TURKIY XALQLAR ADABIYOTSHUNOSLIGI: TARIXI, FOLKLORSHUNOSLIGI VA ADABIY TA'SIR MASALALARI	
Алламбергенов К. Қарақалпақ эпосларында даралық дәретиўшилиқ көринислери (Қыяс жыраў жырлаған «Аманбай батыр» дәстаны мысалында)	4
Agayeva F.A. Nizâmî Gencevî eserlerinde halk ve hükümdar sorunu	8
Xamrakulova X. Bolalar tarbiyasida erkalash leytmotivi yetakchi bo'lgan bolalar qo'shiqlarining o'rni	12
Sariyev S. „Go'ro'g'li“ turkumi qoraqalpoq versiyasining qo'lyozmalari	17
Эшонқулова С.И. Нодира услубига доир	19
Sabirova N.E. Xorazm folklori marosimlarining ilmiy-nazariy aspektlari	23
Каримов О., Мирзаев М. Жаҳон адабиётшунослигида поэтика масаласини ўрганишда ўзаро таъсир талқини	26
Ташанов К.Ю. Адабий таъсир ва адабий алоқа: муаммолар ва ечимлар	30
Sabitova T, Boboqulova H. „Malika ayyor“ dostonining badiiyatini ochishdagi mubolag'a san'ati haqida	36
Матекеев С. Эжинияз поэзиясында интим лирика маселелери	39
Бекчанова С.Б. Нақллар структурасининг қиёсий тадқиқи	43
Турсунова Н.Х. Маросим, урф-одат ва иримлар муносабати хусусида	46
Adizova N.B. Qiziqmachoq janrining yuzaga kelish omillari	50
Темирова М. Элдик мақал-лақаптардын образдык системасы	54
Xaitov X.A. Badiiy adabiyot taraqqiyotida xalq kulgi madaniyatining o'rni	58
Бекимбетов А.М. Халық эпсаналарында хәким улықпан образының сәўлелениўи	61
Раҳмонова Ш.М. Хўжандийнинг «Латофатнома» асари ҳақида	64
Алламбергенова Н.Г. «Алпомиш» достони қорақалпоқ вариантларида насрий матнлар бадиияти	66
Omanova M.C. Yunus Emro – turkiy xalqlar tasavvuf adabiyoti vakili	69
Алламбергенов Ҳ.К. Халқ эртақларида ғайритабиий ва заминий элементлар қоришиқлиги	73
Дўстова С.С. Баёний девонининг 1120 рақамли қўлёзмаси	76
Қаландарова Д.А. Фольклор ва ёзма адабиёт муносабати (Карл Райхл тадқиқотлари мисолида)	79
Есебаев М.М. Қаҳарманлық дәстанларында қаҳарманлар образының	82

Ктайбекова З.К. Ә.Атажановтың «Ыза» гүрриңинде вульгаризмлердің қолланылыуы	608
Rasulova N.A. Common characters of turkic languages	610
Xidirov O.J. Til korpusida sintaktik tahlil dasturini yaratish masalalari	614
Temirkhanova G.U. Thematic sphere of borrowed words in the current vocabulary of the karakalpak language	617
Ibragimova L. O‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarni transformatsiyalash jarayonlari	620
Хайдарова К.Д. Ўзбек, рус ва инглиз тилларида олма сўзининг лингвокультурологик хусусиятлари	621
Бойматова Д.Б. Уюшиқ бўлақлар билан мураккаблашган содда гапларнинг тилшуносликда ўрганилиши	625
Мустафаева А.Ж. Қарақалпақ тилинде бир ҳәм көп компонентли аналитикалық фейиллер	629
Бердимуратова Г.А. Қарақалпақ тилинде шаңарақ концептиниң әхмийети	633
Turdialiev A. Oraliq shevalar talqiniga doir	636
Jolmbetova Sh. G.Dáwletovaniń shıǵarmalarında naqıl-maqallardıń lingvopoetikalıq analizi	641
Karimov I.Y. A.Navoiy asarlari leksikasining o‘ziga xosligini ta’minlovchi lingvistik omillar	644
Матжанова А.Ж. Қарақалпақ тилинде «сен» ҳәм «сиз» мүрәжат формаларының өзгешеликлери	650
Абдуллаева М. Шоир Хайратий шеъриятида лингвокультурология манзараси	654
Сайманова А.М. «Қара» сөзиниң лингвокультурологиялық белгилери (Қарақалпақ халық қосықлары мысалында)	657
Alimardanov E.I. Turkiy kontaktologiya: o‘zbek va turkman tillari kontaktlarining o‘rganilishi	661
Заримбетов А.А. Выражение концепта «гостеприимство» в каракалпакском и русском художественных текстах	666
Rzamuratova Z. Qaraqalpaq tilindegi genderlektlerdiń leksikalıq sıpatı	668
Yunusova Sh. Özbek medya reklamcılık dili üzerine biçem bilimsel bir inceleme	672
Ro‘ziyev E.O‘. Turkiy siyosiy nutqni davrlashtirish masalasi borasida ayrim mulohazalar	678
Razzaqova M. O‘zbek tili ta’limida sharada- she’riy jumboqlardan foydalanish	681
Ibragimov A. O‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarni transformatsiyalash jarayonlari	684
Rashidova M.S. O‘zbek tili iboralari salbiy munosabat hosil qiluvchi vosita sifatida	686